



Nurbek ISKANDAROV,

Tayanch doktorant, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: iskandarovn06@gmail.com, ORCID: MQD-0525-0175

DIAGNOSING THE EMOTIONAL INTELLIGENCE OF STUDENTS MAJORING IN PEDAGOGICAL STUDIES

Annotation

This article examines the emotional intelligence of students majoring in pedagogical studies and its impact on the motivational sphere of future teachers. The study involved 320 students majoring in pedagogy at the National University of Uzbekistan, Navoi State University, Samarkand State University, and Bukhara Pedagogical University. The diagnostic methods used included N. Hall's Emotional Intelligence Test and A.A. Rean and V.A. Yakunin's method for studying students' learning motives. The study's results confirm that emotional intelligence is an important socio-psychological factor in shaping the motivational sphere of future teachers.

Keywords: Emotional intelligence, motivation, students majoring in education, empathy, self-motivation, professional motivation, emotion management, teacher personality, educational activities, correlation analysis.

ДИАГНОСТИКА ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАПРАВЛЕНИЙ

Аннотация

В данной статье рассматриваются особенности эмоционального интеллекта студентов педагогических направлений и его влияние на мотивационную сферу личности будущего педагога. В исследовании приняли участие 320 студентов педагогических направлений Национального университета Узбекистана, Навоийского государственного университета, Самаркандского государственного университета и Бухарского педагогического университета. В качестве диагностических методов были использованы тест эмоционального интеллекта Н. Холла и методика изучения мотивов учебной деятельности студентов А.А. Реана и В.А. Якунина. Результаты исследования подтверждают, что эмоциональный интеллект является важным социально-психологическим фактором управления мотивационной сферой будущего педагога.

Ключевые слова: эмоциональный интеллект, мотивация, студенты педагогических направлений, эмпатия, самомотивация, профессиональная мотивация, управление эмоциями, личность педагога, образовательная деятельность, корреляционный анализ.

PEDAGOGIK YO'NALISH TALABALARINING EMOTSIONAL INTELEKTI DIAGNOSTIKASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada pedagogik yo'nalish talabarlari emotsional intellektining xususiyatlari hamda uning bo'lajak pedagog shaxsining motivatsion sohasiga ta'siri ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda O'zbekiston Milliy universiteti, Navoiy davlat universiteti, Samarqand davlat universiteti va Buxoro pedagogika universitetining pedagogik yo'nalishlarida tahsil olayotgan 320 nafar talaba ishtirok etdi. Diagnostik metodikalar sifatida N. Xollning emotsional intellekt testi hamda A.A. Rean va V.A. Yakuninning talabalar o'quv faoliyati motivlarini o'rganish metodikasi qo'llanildi. Tadqiqot natijalari emotsional intellekt bo'lajak pedagogning motivatsion sohasini boshqarishda muhim ijtimoiy-psixologik omil ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: emotsional intellekt, motivatsiya, pedagogik yo'nalish talabarlari, empatiya, o'zini motivatsiyalash, kasbiy motivatsiya, emotsiyalarni boshqarish, pedagog shaxsi, ta'lim faoliyati, korrelyatsion tahlil.

Kirish. Bo'lajak pedagoglarning, turli sohalar bo'yicha pedagogik ta'lim olayotgan oliy muassasalar talabalarining emotsional intellekt darajalari ularning motivatsion sohasining asosiy omillari ekanligi, mazkur motivatsion sohaning mexanizmlari va shaxsning boshqa regulativ xususiyatlarining qonuniyatlarini aniqlash, o'rganish va tahlil qilish maqsadida olib borilgan nazariy-metodologik tahlilning asosiy g'oyasi, pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarining nafaqat mazkur ko'rsatkichlar bo'yicha darajalari, determinizm qonuniyatlariga buyunish tartiblarini, balki ularda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, emotsional intellektni rivojlantirish orqali motivatsion sohani takomillashtirish uchun universal uslubiy-amaliy dasturning metodologik asosini tashkil etadi.

Ta'lim sohasida pedagoglarning emotsional intellekti (keyingi o'rinlarda EI deb yuritiladi), ularning kasbiy faoliyatida motivatsiyaning anglanilganlik darajasi va uning tarkibiy komponentlarining refleksiv boshqarilishi, ta'lim sifatini oshirishga samarali ta'sir qiladi. Pedagogning, faoliyatidagi xulq-atvori, kasbiy munosabatlarga, muloqotga va

kasbiy xabardorlikka bog'liq. Bo'lajak pedagoglarning kasbiy, o'quvchilarga berilayotgan ta'limning adekvat boshqarilishi bilan bog'liq hatti-harakatlariga zamonaviy yondashuvlarning asosiy tamoyillari ish muhitidagi xilma-xillik va individual xususiyatlarni tahlil qilishdir. Ammo bu xodisalarining umumiy qonuniyatlarini va ularning o'zaro bog'liqligini aniqlashda nazariy-metodologik manlallarni o'rganish juda muhimdir. Nazariy tahlillarda emotsional intellekt tushunchasi, motivatsion sohaning harakatlantiruvchi mexanizmlari sifatida, turli davr va hududlarda ushbu tushunchalarning tadqiq qilish jarayonlari tahlil qilinadi. Jamiyatning barcha jabhalarida emotsional intellekt muammosi, texnologiya rivoji keskin amalga oshayotgan bir davrning eng tadqiqiy sohalaridan biriga aylandi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Yuqori emotsional intellekt ma'lum bir vaziyatda ifodalanadigan emotsionallikning barqarorligi, atrofda g'ayrat hissiy hatti-harakatlarini idrok qilish bilan ifodalanadi va subyektiv emotsional va ijtimoiy ehtiyojlar bilan uyg'unlashadi. Tadqiqotning mazkur bo'limi doirasida emotsional intellekt va

uning tarkibiy qismlari (D.Goulman 2009, Pol Ekman 2002 tamoyili asosida), modellari tahlil qilingan. Emotsiya tushunchasi lotincha “Emoveo” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “qo‘zg‘atish” degan ma‘noni bildiradi. Hissiyotlar ya‘ni emotsiyalar – shaxsning hayot faoliyati uchun obyektlar, xodisalar va vaziyatlarning ahamiyatini bevosita tajribalar shaklida aks ettirilgan aqliy jarayonlar va holatlarning maxsus sohasidir. Emotsiya tufayli voqelikning asl jihatlarini subyektiv ravishda aks ettiriladi. Emotsiya har bir shaxs faoliyatida va hayotida namoyon bo‘ladi va bu uning intellektual faoliyat va hulq-atvorni ichki tartibga solishning asosiy mexanizmlaridan biriga, shuningdek joriy ehtiyojlarni, motivatsion soha orqali, qondirish vositasiga aylanadi. Ular emotsional intellekt omilining tabiati, individual-shaxsiy xususiyatlar, o‘tmishdagi tajriba va shaxsning jismoniy-psixologik holati bilan belgilanadi [4].

Bo‘ljak pedagoglarning emotsional intellektini tadqiq qilishda bir necha ahamiyatli qiyinchiliklar yuzaga keladi. Birinchisi, his-tuyg‘ular juda beqaror va o‘zgaruvchan bo‘lishi, kutilmaganda boshqa ko‘rinishga o‘tishi yoki boshqa darajaga yetishi mumkin. Emotsiyani an‘anaviy tadqiqot usullari yordamida talqin qilib bo‘lmasligining axloqiy sabablari ham mavjud. Emotsiyani va emotsional intellekt darajasini o‘rganishning yana bir muammosi shundaki, subyektiv tajriba va shaxs kognitiv sohasining obyektiv haqiqati doimo o‘zgarib turadigan tuzilmadir. Emotsiya – bu shaxsning his tuyg‘ularining turli darajalardagi ko‘rinishi bo‘lsa, emotsional intellekt mazkur his-tuyg‘ularning sababini, oqibatini anglash, boshqarish bilan birga o‘zgalarning his-tuyg‘ularini idrok etishni anglatadi.

Shuningdek, yana bir muhim obyektiv qiyinchiliklar sirasiga madaniy muhitni kiritish mumkin. Madaniyatimiz, milliy tarbiya usullarimizni tahlil qiladigan bo‘lsak, u holda shu narsa oydinlashadi, aksariyat kishilar o‘z his-tuyg‘ularini oshkor qilmaslik sharoitida shaxshiy-individual xususiyatlarini shakllantirishgan. Bunga misol tariqasida, bolani yoshligidan jahlini, ko‘z yoshini, his-tuyg‘ularini ko‘rsatmaslikka chaqirishadi, lozim bo‘lganda bu holatlarning kishilar oldida namoyon bo‘lishini yat tariqasida bolaga singdirishadi. Bunda shaxsning o‘z emotsiyalarini tan olishi, ularni nomlash tajribasi shakllanmay qolishi bilan birga, ularni nazorat qilish, boshqarish va o‘zgalarning emotsiyalarini tanish, noverbal-perseptiv idrok qilish imkoniyati rivojlanmaydi. Misol uchun, rus madaniyatida “мне обидно”, “мне больно”, “я страдаю” iboralari tez-tez bolalar tilida uchrasa-da, ushbu iboralarni qo‘llash, o‘zbek madaniyatida ichki olami holati haqiga gapirish “odobdan bo‘lmagan”. Tadqiqot obyektining aksariyat sinaluvchilari o‘zbek millatiga mansub, talabalarni tashkil qilgani bois, tadqiqot oldida turgan obyektiv (madaniy cheklovlar) va subyektiv (madaniy cheklovlar oqibatida shaxs emotsiyalarini ko‘rsatish bilan bo‘g‘liq ichki to‘siqlar) muammolarni sanab o‘tish joiz. Shaxsda o‘z his-tuyg‘ularini tanishi, ularni nomlay olish qobiliyatini shakllantirish bugungi kunda uning zaruriy kognitiv-emotsional xususiyatlariga kiradi.

Mazkur muammolarning mavjudligi, tadqiqot doirasida nafaqat psixologik-diagnostik amaliyotni olib borish, emotsional intellekt darajalarining motivatsion sohasiga ta‘sirini o‘rganish, balki emotsional intellektni rijoqlantirish, lozim bo‘lganda, shakllantirish yuzasidan chora-tadbirlar rejasini tuzish va kerakli amaliy ishlarni olib borish zaruratini ko‘rsatadi.

Emotsional intellekt nisbatan yangi tushuncha bo‘lib, o‘ttiz-ellik yil ichida dolzarb tus olgan [3].

Bo‘ljak pedagoglarning professional va shaxsiy hayotida yuzaga keladigan vaziyatlarga munosabati, stressni boshqarish, qaror qabul qilish, muloqotni boshqarish,

boshqalarga hamdardlik bildirish qobiliyatidir. Bu ko‘nikmalar emotsional intellekt tuzilmasiga kiradi.

Emotsional intellekt – bu shaxsda o‘z qarashlari va tanlovlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradigan murakkab hatti-harakatlar, qobiliyatlar, e‘tiqodlar va qadriyatlar majmuidir. Emotsional intellektning turli vaqtlarda turli soha vakillari o‘rganishgan, jumladan: falsafiy, psixologik, ijtimoiy-psixologik, neyrologistik.

J. Meyer va P. Solovey tushunchalari emotsional intellektni shaxsiy o‘zishni rag‘batlantirish uchun tafakkur va hissiyotlarni birlashtirish, va ularni tartibga solishning soddalashtirish maqsadida, his-tuyg‘ularni idrok etish qobiliyati sifatida belgilaydi. Ular psixologiyada emotsional intellektning datlabki va eng dolzarb modelini ishlab chiqishdi. Mazkur model o‘zida quyidagi komponentlarni oladi:

- 1) His-tuyg‘ularni idrok etish, baholash, va ifodalash;
- 2) His-tuyg‘ularni boshdan kechirish, uyg‘otish qobiliyati, ularni tartibga solish;
- 3) Tafakkur va faoliyatda hissiy ma‘lumotlardan foydalanish, ularni tushunish va his-tuyg‘ular orasida murakkab munosabatlarni anglash;
- 4) His-tuyg‘ularni boshqarish [2].

Bir necha yillardan so‘ng, Mayer va Solovey Caruzo bialn hamkorlikda taniqli nazariyani takomillashtirdilar. Modelning ushbu ko‘rinishida, his-tuyg‘ular, shaxsning boshqa odamlar bilan munosabatlari haqida ma‘lumotga ega ekanligi va his-tuyg‘ular insonga bu munosabatlarning mohiyati haqida ma‘lumot berishi haqida ta‘kidlangan [7].

Marenusning so‘zlariga ko‘ra [1], “an‘anaviy intellekt” “IQ testlari bilan o‘lchanadigan narsa” deb ta‘riflanishi mumkin. Bu testlar, mantiqiy fikrlash, analitik ko‘nikmalar, nutq bilan bog‘liq ko‘nikmalar va boshqalar uchun, ya‘ni muammoni oqilona tahlil etish va hal qilish uchun ko‘nikmalar to‘plamidir. U asosan, muammoni hal qilish strategiyasida uch bosqichni ajratib ko‘rsatadi: 1) Muammoni topish, faktlarni to‘plash; 2) muammoni hal qilish, muammo tavsifida aniqlangan batcha elementlarni hisobga oladigan nazariy yechimni taklif qilish; 3) qarorlarni qo‘llash, tanlangan qarorni oqilona amaliyotga tadbiq etish. Birinchi va ikkinchi bosqichlar an‘anaviy intellekt sohasiga kiradi va mantiqiy fikrlash natijasidir. Uchinchi holat, Howard Gardner fikriga ko‘ra, emotsional intellekt ko‘rinishidir. Olim intellekt sohasida atroflicha izlanishlar olib bordi, uning mulohazalariga ko‘ra, boshqa odamlarning niyatlari, motivatsiyalari va istaklarini tushunish uchun shaxslararo qobiliyatni va shaxsiy emotsiyalarni, qo‘rquvlarni va imkoniyatlarni anglash uchun shaxs o‘zidagi qobiliyatni idrok etishi nlozim. “Ko‘p o‘lchovli intellekt” nazariyasi muallifi, intellektning sakkiz ko‘rinishini baholagan Gardner, an‘anaviy intellekt turlari, IQ kognitiv qobiliyat haqida to‘liq tushuncha bera olmasligini aytgan. U emotsional intellektni “intrapersonal intellekt” va “interpersonal intellekt ta‘riflari bilan baholagan, ya‘ni shaxs o‘zi bilan sodir bo‘layotgan barcha holatlardan his-tuyg‘ularni anglashi intapersonal; shaxslararo munosabatlarda o‘zgalarning barcha ichki holatlarini to‘g‘ri anglashi interpersonal intellekt deb baholanaadi [5].

Dobrev fikriga ko‘ra, Shaxsning ijtimoiy mavqei qanchalik yuqori bo‘lsa, u o‘zining hissiy ehtiyojlarini qondirishga shunchalik ko‘p e‘tibor qaratadi [3]. Shuning uchun bo‘ljak pedagoglarning o‘z kasblarini tanlash bo‘yicha yakuniy qaror oxir-oqibat emotsional soha tomonidan boshqariladi. Emotsional intellekt – o‘zi va boshqalarning his-tuyg‘ularini ifoda eta olishi yoki tushunish qobiliyati bilan belgilanadi va emotsional intellekt qobiliyati bilan belgilanadi. EI darajasi shaxsning hissiy aql-zakovati qobiliyati bilan bezosita bog‘liqdir. Bu motivatsiya va EI orasidagi o‘zaro bog‘liqlikning yuqori darajadagi ahamiyatini aks ettiradi. Har

qanday ta'lim sohasidagi rivojlanish uchun yuqori malakali pedagoglarni jalb qilish va nafaqat ta'lim berish, balki o'quvchilar va hamkasblar bilan samarali muloqot muhitini yaratish imkoniyati ta'limni boshqarish sohasining katta yutig'idir. Bu erda, ijobiy muhit har qanday salbiylikdan holi, ishonchga to'la muhit yaratish, ta'lim boshqaruvining maqsadlari bilan hamohanglik va yakkilikni o'rnatish va umuman olganda, ta'lim subyektlarining emotsional qoniqishini anglatadi. Ushbu kombinatsiyaga erishish uchun yuqori EI ga ega pedagoglarni treninglar va o'quv amaliyotlari orqali etishtirish, ta'lim istiqbollari uchun muhim ahamiyatga ega.

EI asosiy yo'nalishlarini bayon qiladigan bo'lsak, yuqori emotsional bilimdonlik ma'lum bir vaziyatlarda ifodalangan his-tuyg'ularning mosligi bilan tavsifalanadi va subyektiv emotsional va ijtimoiy ehtiyojlar bilan izohlanadi.

Kolumbiya universiteti professori E. L. Torndayk "ijtimoiy intellekt" atamasini boshqalarni tushunish va "insoniy munosabatlarda oqilona harakat qilish" qobiliyatini tasvirlash uchun ishlatiladi – bu "o'z-o'zidan inson intellektining o'lchovlaridan biri" hisoblanadi [8].

Jan Piaje (1948, 1994), har bir kishida intellektni shakllantirishda muloqot, his-tuyg'ular va moslashuv alohida ahamiyatga ega deb taxmin qilgan. Piaje bolalar intellektining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan kommunikativ jarayonda subyektiv fikr, fikrning ta'siri va boshqa kishilarning his-tuyg'ulari kabi ijtimoiy psixologik omillar mavjudligini aniqladi [1].

Devid Veksler (1944), 1940 yillarda intellectual hatti-harakatlarda kognitiv bo'lmagan omillarning ta'sirini izohlab berdi va agar ular bu omillarni etarlicha tasvirlay olmasa, intellekt modellari to'liq bo'lmaydi, degan g'oyani ilgari surdi. U kognitiv hatti-harakatning bir xil koeffitsientlariga ega bo'lgan shaxslar atrof-muhit muammolarini ya'ni ijtimoiy muammolarni samarali hal qilish qobiliyati jihatdan ular ishlaydigan axborot turiga – og'zaki va og'zaki bo'lmaganlarga qarab farq qilishini aniqladi. Vekslerning mulohazalariga

binoan, affektiv va motivatsion qobiliyatlar kabi kognitiv bo'lmagan omillar u, "intelektual" hatti-harakatlar o'ziga xos hatti-harakatlar turini belgilaydi.

Olimning qo'shimcha qilishicha, agar barcha ta'sir etuvchi omillar – ijtimoiy va shaxsiy tafakkurga to'liq ta'sir etmasa, subyektiv tafakkurning to'liq modellari mavjud emas va aql shaxsning maqsadli harakat qilish, fikrlash, atrof-muhit bilan munosabat o'rnatish samarali ta'sir etish imkoniyatidir [9].

"Emotsional intellekt" tushunishini Hanskarl Leuner 1962 yilda qo'llagan [3].

Howard Gardner esa, mazkur konsepsiyani "ko'p o'lchamli intellekt" g'oyasini shakllantirish asosida yondashadi. Uning so'zlariga ko'ra, IQ kabi ana'naviy intellekt tushunchalari odamlarning harakatlaridan kelib chiqadigan kognitiv qobiliyatlar va natijalarni qoniqarli tarzda tushuntira olmaydi. "Ko'p o'lchamli intellekt" shuningdek, shaxslararo intellekt – maqsadlarni, motivlarni va boshqa odamlarning xohish istaklarini tushuntirish qobiliyati, his-tuyg'ularni darhol payqash, ularni nomlash, ramziy kodlarga o'girish va shaxsiy hatti-harakatlarni anglash va boshqalarni o'z ichiga oladi [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu dissertatsiyaning tadqiqot doirasida bo'lajak pedagogning emotsional intellekti uning motivatsion sohasining sababiy qonuniyati sifatida o'rganiladi, ya'ni EI tadqiqot obyekti – bo'lajak pedagoglarning motivatsion sohasini shakllantiradigan omil sifatida tahlil qilinadi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot vazifalarini amalga oshirish uchun, unda 17 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan 320 nafar O'zbekiston Milliy Universiteti, Navoiy davlat Universiteti, Samarqand davlat universiteti, Buxoro pedagogika universiteti pedagogika yo'nalishi talabalari qatnashdi.

Tadqiqotning birinchi bosqichida N. Xollning "Emotsional intellekt testi" va A.A. Rean, V.A. Yakuninlarning Talabalarining o'quv faoliyati motivlarini o'rganish metodikasi qo'llanildi.

1-Jadval.

N. Xollning "Emotsional intellekt testi" bo'yicha SPSS dasturining tasnifiy statistik natijalari (N=320).

Ko'rsatkichlar	Min.	Maks.	O'rtacha	Stand.og'ish	Assim.	Eksess
Emotsional xabardorlik	2	18	10,24	2,94	-0,21	-0,34
Emotsiyalarni boshqarish	1	17	9,87	3,26	-0,16	-0,45
O'z-o'zini motivatsiyalash	3	9	11,41	3,42	-0,39	-0,23
Empatiya	4	20	12,13	2,94	-0,32	-0,56
Boshqa odamlarning his-tuyg'ularini bilish	2	18	10,97	3,18	-0,14	-0,45
Umumiy emotsional intellekt	21	82	55,09	10,71	-0,33	-0,29

Tahlil natijalariga ko'ra, respondentlarda emotsional intellektning eng yuqori ko'rsatkichi empatiya shkalasida qayd etildi. Bu holat talabalarining boshqalarga hamdard bo'la olish, qayg'usiga sherik bo'la olish qobiliyatini ko'rsatadi. Boshqa shkalalarga nisbatan past ko'rsatkich Emotsiyalarni boshqarish shkalasida aniqlandi. Bu ba'zi talabalarining emotsional holatlarini nazorat qilish ko'nikmasining etarli darajada rivojlanmaganini ko'rsatadi. Umimiy emotsional intellektning o'rtacha qiymati 55,09±10,64 oralig'ini qayd etdi. Mazkur natija respondentlarda emotsional intellekt o'rtacha darajada

rivojlanganini ko'rsatadi. Eksess va asimmetriya qiymatlarining ±1 oralig'ida joylashgani ma'lumotlarni normal taqsimotga mosligini anglatadi. Talabalarining emotsional intellekt darajasida past va yuqori olgan talabalar o'rtacha ko'rsatkichni qo'lga kiritgan talabalarga nisbatan ozchilikni tashkil etishi aniqlandi.

Tadqiqot sinaluvchilarining yo'nalishi Tarix yo'nalishi, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi va matematika yo'nalishi talabalari bo'yicha tahlil qilindi, olingan natijalar keying jadvalda beriladi.

2-Jadval.

N. Xollning "Emotsional intellekt testi" talabalar yo'nalishlar kesimida SPSS dasturining o'rtacha qiymat ko'rsatkichlari (N=320).

Yo'nalish shkala	Matematika ta'limi (n=104)	Boshlang'ich ta'lim (n=108)	Tarix (n=108)
Emotsional xabardorlik	9,84	11,42	12,31
Emotsiyalarni boshqarish	8,93	10,11	11,28
O'z-o'zini motivatsiyalash	10,26	11,87	12,74


Empatiya	10,41	14,36	13,92
Boshqa odamlarning his-tuyg'ularini bilish	9,78	11,94	13,11
Umumiy emotsional intellekt	49,22	59,70	63,36

Tarix yo'nalishi talabalarida integral emotsional intellekt ko'rsatkichi boshqa yo'nalish talabalariga qaraganda, yuqori ekanligi kuzatildi. Bu holat ushbu sohada tahsil olayotgan talabalarining ijtimoiy-emotsional xodisalarini anglash, shaxslararo munosabatlarni tahlil qila olish va kommunikativ sezgirlikning nisbatan rivojlangani bilan izohlash mumkin.

Boshlang'ich yo'nalish talabalarida esa, empatiya ko'rsatkichi eng yuqori natijani qayd etdi. Mazkur natija pedagogik faoliyatning insonparvarlik, va bolalar bilan emotsional muloqotga yo'nalganligi bilan belgilanadi.

Matematika yo'nalishi talabalarida rcha shkalalar bo'yicha ortacha ko'rsatkichlar nisbatan pastroq kuzatilgan bo'lsa-da, bu holat ularning emotsional intellekti pastligini emas, balki analitik va amantiqiy fikrlash ustunligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

A.A. Rean, V.A. Yakuninlarning Talabalarining o'quv faoliyati motivlarini o'rganish metodi orqali olingan natijalar chastitali tahlilda qayd etildi va faqat 5 tadan tanlangan, ranjirlangan shkalalar qiymatli natijalarga aylantirildi va motilar guruhlashtirildi.



1-rasm. Motivlar ro'yxatining chastotali grafigi (N=320).

Natijalarga ko'ra, talabalar orasida eng yustuvor motiv "Chuqur va mustahkam bilimlarga ega bo'lish"- 80 % , "Kelajakda kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish" - 77,2% tashkil etdi. Bu esa, respondentlarda ichki va kasbiy motivning ustunligini ko'rsatdi.

"Yuqori malakali mutaxassis bo'lish" - 75,2% ni, "Intellektual qoniqish olish" - 71,3 % ni ko'rsatdi. Mazkur foizlar, talabalar o'quv faoliyatida shaxsiy rivojlanish va kasbiy o'sishga

yo'naltirilgan motivlarning ustunligini ko'rsatdi. Past ko'rsatkich "Tanqid va jazodan qochish" - 30,0% ni qayd etdi. Bu esa, tashqi salbiy rag'batga asoslangan otivatsiya talabalar faoliyatida etakchi omil emasligini ko'rsatdi.

Metodikani baholash Laykert tipdagi shkala bo'lgani uchun, natijalar asosan Spirman korrelyatsion jadvalida baholanadi (qiymatlar normallikka yaqin bo'lsa-da).

3-jadval.

Emotsional intellekt ko'rsatkichlari va talabalar o'quv motivlarining korrelyatsiya natijalari (Spirman korrelyatsiyasi).

Motivlar	EI	Empatiya	O'zini motivatsiyalash	Emotsiyani boshqarish	Umumiy EI
Kasbiy motiv		,41**	,53**	,36**	,42**
Bilim olish motivi		,29*	,48**	,31*	,37*
Diplom olish motivi		-,12	-0,9	-,18	,19,7

**p<0,01 darajada ahamiyatli, *p<0,05 musarajada ahamiyatli,

Korrelyatsiya natijalariga ko'ra, emotsional intellekt ko'rsatkichlari bilan talabalarining o'quv motivlari turlicha natija ko'rsatdi, jumladan: kasbiy motiv va emotsional intellektning barcha shkalalari mustahkam bo'liqlikni ko'rsatdi. Misol uchun kasbiy motiv va o'zini motivatsiyalash rs = 0,53; p<0,01 da baholandi, bu esa, emotsional o'zini boshqara oladigan talabalar kasbiy rivojlanishga ko'proq intilishi kuzatildi. Kasbiy motiv va umumiy EI rs = 0,42; p<0,01 da belgilandi.

Diplom olish motivi bilan EI komponentlari teskari va juda sust bog'liqlik asosida baholandi. Empatiyada rs = -0,12; emotsiyani boshqarish rs = -0,09; emotsiyani boshqarish rs = -0,18 da belgilandi. Bu natija diplom olishga yo'naltirilgan tashqi motivatsiya EI ning komponentlari bilan kuchli bog'liq emasligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan tadqiqot natijalari EI bo'lajak talabalar motivatsion sohasini boshqarishda muhim ijtimoiy-psixologik omil ekanligi aniqlandi va tadqiqot oldiga qo'ygan masalaning dolzarbligi va ahamiyatini isbotlaydi.

ADABIYOTLAR

1. <https://www.simplypsychology.org/multiple-intelligences.html>
2. Пиаже Ж. Избранные психологические труды. Москва: Международная педагогическая академия, 1994. 676 с.
3. Сергиенко Е., Ветрова И., Тест Майера, Соловья и Карузо. Москва: РАН, 2010. 175 с.
4. Dobrev D. Emotional intelligence and work motivation of professionals in private and public organizations. Sofia: University Press, 2023. 107 p.
5. Ekman P. Recognizing Faces and Feelings to Improve Communication and Emotional Life. - New York: Times Books, 2002. - 288 p.
6. Gardner Howard Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. - New York: Basic Books, 1983. - 440 p.
7. Goleman Daniel Emotional Intelligence. - New York: Bantam Books, 2009. - 506 p.